

UDC: 343.988(045)(575.1)

ZARURIY MUDOF AADAN FOYDALANISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI VA JINOYAT-HUQUQIY SHARTLARI

Otegenova Luiza Joldasbayevna,
O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy
kengashi huzuridagi Sudyalar oliy
maktabi mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0001-8197-9019
e-mail: luiza_0077@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada zaruriy mudofaadan foydalanishning konstitutsiyaviy asoslari va jinoyat-huquqiy shartlariga doir masalalar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada zaruriy mudofaa huquqi har bir shaxsga tegishli huquq ekanligi, shaxs o'zining, boshqa jabrlanuvchilarning, jamiyat va davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilish huquqiga egaligi, shaxslarning bu huquqlari konstitutsiyaviy darajada belgilanganligi ta'kidlangan. Maqolada har bir shaxsga berilgan zaruriy mudofaa huquqi jinoyatchilikka qarshi kurashda fuqarolarning davlat organlariga faol yordam berishini ta'minlaydi. JKning 37-moddasi respublika hududida har bir fuqaroga zaruriy mudofaani qo'llash huquqini beradi, chunki bunday himoyani amalga oshirish qonun muhofazasidagi qadriyatlarga nisbatan qilingan qonunga zid tajovuzning oldini olishga qaratilgani uchun ijtimoiy foydali deb topilishi yuzasidan fikrlar tahlil etilgan. Muallif maqolada biror jinoiy faoliyatni amalga oshirish maqsadida unga tayyorgarlik ko'rish yoki uni rejalashtirish jarayonida zaruriy mudofaani qo'llash mumkin bo'lmazligi, agar tajovuz faqat tayyorlanayotgan yoki amalga oshirish rejasi tuzilayotgan bo'lsa, uning mavjudligi istisno qilinishi, bunday hollarda ilgari zarur yetkazish umumiy asoslarda jinoiy javobgarlikka olib kelishi hamda himoya nazarda tutilgan va kelgusida sodir etilishi mumkin bo'lgan hujumni hisobga olib amalga oshirilgan bo'lsa ham zaruriy mudofaa deb hisoblanmasligi yuzasidan o'z fikrlarini bayon etgan.

Kalit so'zlar: zaruriy mudofaa, konstitutsiyaviy asoslar, shartlar, jinoyat, jazo, javobgarlik, tajovuz qiluvchi, zarar, huquqiy, himoya.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВАНИЯ И УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ УСЛОВИЯ ПРИМЕНЕНИЯ НЕОБХОДИМОЙ ОБОРОНЫ

Отегенова Луиза Жолдасбаевна,
самостоятельный соискатель Высшей школы судей
при Высшем судебном совете Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с конституционными основами и уголовно-правовыми условиями применения необходимой обороны. Также в статье указано, что право на самооборону является правом каждого человека, что человек имеет право на защиту себя, других потерпевших, интересов общества и государства от противоправной агрессии, и что эти права личности определены на конституционном уровне. В статье предоставление каждому лицу права на необходимую оборону обеспечивает активное содействие граждан государственным органам в борьбе с преступностью, статья 37 Уголовного кодекса наделяет каждого гражданина правом на

применение необходимой обороны на территории республики, поскольку осуществление такой защиты направлено на предотвращение противоправной агрессии против охраняемых законом ценностей. Проанализированы мнения относительно ее общественной полезности. В статье автором подчеркивается, что для осуществления преступной деятельности невозможно использовать необходимую оборону при подготовке к ней или в процессе ее планирования, если агрессия только готовится или составляется план, ее наличие исключается, однако в таких случаях вред причиняется заранее, что влечет за собой уголовную ответственность на общих основаниях, и в этом случае защита не считается необходимой, даже если она осуществляется с учетом возможного нападения в будущем.

Ключевые слова: необходимая оборона, конституционные основания, условия, преступление, наказание, ответственность, агрессор, вред, право, защита.

CONSTITUTIONAL GROUNDS AND CRIMINAL-LEGAL CONDITIONS FOR THE APPLICATION OF NECESSARY DEFENSE

Otegenova Luiza Joldasbaevna,

Independent Researcher at the Higher School of Judges
under the Supreme Council of Judges of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article describes the issues related to the constitutional basis and criminal legal conditions of the use of necessary defense. Also, the article states that the right to self-defense is the right of every person, that a person has the right to protect himself, other victims, the interests of society and the state from unlawful aggression, and that these rights of individuals are defined at the constitutional level. In the article, the right of necessary defense given to every person ensures that citizens actively help state bodies in the fight against crime, Article 37 of the Civil Code gives every citizen the right to use necessary defense in the territory of the republic, because the implementation of such protection is aimed at preventing illegal aggression against the values protected by law. Opinions regarding its social utility have been analyzed. In the author's article, in order to carry out criminal activity, it will not be possible to use the necessary defense in the process of preparing for it or planning it. In such cases, premeditated damage generally leads to criminal liability and defense is not considered a necessary defense, even if it is intended and carried out taking into account a possible attack in the future.

Keywords: necessary defense, constitutional grounds, conditions, crime, punishment, liability, aggressor, damage, legal, protection.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 37-moddasida zaruriy mudofaa tushunchasi berilgan. Unga ko'ra "zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya'ni mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlari, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog'ida qilingan harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi" deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 37-moddasida ifoda qilingan zaruriy mudofaa huquqi fuqarolarning shaxsi, uy-joy va mulk haqidagi konstitutsiyaviy qoidalarini kafolatlaydi. Fuqarolarning davlat mulki, davlat va jamoat manfaatlarini qo'riqlash borasidagi Konstitutsiyada belgilangan burchlarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Bu esa sudlardan odil sudlovni amalga oshirishda zaruriy mudofaa to'g'risidagi qonun talablariga og'ishmay qat'iy rioya etishni talab etadi.

Zaruriy mudofaa huquqi har bir shaxsga tegishli huquqdir. Shaxs o'zining, boshqa jabrlanuvchilarning, jamiyat va davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilish huquqiga ega. Shaxslarning bu huquqlari konstitutsiyaviy darajada belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida shaxslarning bu huquqi quyidagicha belgilangan: "Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joy daxlsizligi huquqiga ega".

O'z huquqlari, boshqa shaxslarning huquqlari, jamiyat va davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilish har bir shaxsning konstitutsiyaviy burchidir. Shuning uchun shaxslarning qonunga xilof tajovuzlardan qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda tajovuzchiga zarar yetkazishlari zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish hisoblanmaydi, aksincha, bu harakat ijtimoiy foydali qilmish hisoblanadi va bu qilmish orqali qanchadan qancha og'ir jinoyatlarining oldi olinadi.

Zaruriy mudofaa holatida tajovuz qiluvchiga ma'lum bir zararining yetkazilishi mudofaalanuvchining qilmishi sababli vujudga kelgan ijtimoiy xavfning oldini olibgina qolmay, agar u qonunda belgilab qo'yilgan talablarga javob bersa, bunday faoliyatning ijtimoiy foydali deb topilishiga ham asos bo'ladi [1].

Insonning hayoti, sog'lig'i, jinsiy erkinligiga qarshi qilingan jinoiy tajovuzlardan himoyalaniish insonning bevosita huquqi hisoblanadi. Shunga ko'ra, shunday tajovuzlardan zaruriy mudofaa holatida himoyalaniish tufayli tajovuzchiga zarar yetkazish ijtimoiy xavfli hisoblanmaydi. Aksincha, yuqorida ta'kidlaganimizdek, konstitutsiyaviy burchi sanaladi.

Zaruriy mudofaaning qonuniy harakat ekanligi fuqarolarning jinoyatchilikka qarshi faol kurash olib borishining samarali usullaridan biridir [2].

Har bir shaxsga berilgan zaruriy mudofaa huquqi jinoyatchilikka qarshi kurashda fuqarolarning davlat organlariga faol yordam berishini ta'minlaydi. JKning 37-moddasi respublika hududida har bir fuqaroga zaruriy mudofaani qo'llash huquqini beradi, chunki bunday himoyani amalga oshirish qonun muhofazasidagi qadriyatlarga nisbatan qilingan qonunga zid tajovuzning oldini olishga qaratilgani uchun ijtimoiy foydali deb topiladi [3].

Material va metodlar

Mazkur maqolani tahlil etishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, huquqni qo'llash amaliyotini tahliliy o'rganib chiqish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Zaruriy mudofaadan foydalanish shartlari uch guruhga bo'linadi a) qilmishning ijtimoiy xavfliligi; b) tajovuzning mavjudligi; d) tajovuzning haqiqiyliigi.

Tajovuz vaqtida zaruriy mudofaa huquqidan foydalanish uchun tajovuz ijtimoiy xavfli bo'lishi kerak, ya'ni qilmish Jinoyat kodeksining maxsus qismida nazarda tutilgan jinoyat tarkibini tashkil qilishi lozim. Tajovuzchi tomonidan qilinayotgan harakat jinoyat qonuni bilan jinoyat deb topilishi zarur. Shundagina qilmish jinoyat hisoblanaadi va bu tajovuzdan zaruriy mudofaa orqali himoyalaniish qonuniy bo'ladi.

Jinoyat kodeksining maxsus qismida nazarda tutilgan harakatlar uni sodir etgan shaxsning javobgarlikka tortilganligi yoki aqli norasolik tufayli jinoiy javobgarlik yoshiga to'lmaganligi sababli va boshqa asoslarga ko'ra javobgarlikdan ozod qilinganligidan qat'i nazar, Jinoyat kodeksining 37-moddasi doirasida himoyalaniishiga asos beruvchi ijtimoiy xavfli tajovuz hisoblanadi.

Tajovuz qiluvchi shaxs ruhiy kasal bo'lgani uchun, jinoyat yoshiga to'lmagani va boshqa sabablarga ko'ra jinoiy javobgar-

lik belgilanmagan bo'lsa ham uning jinoyat qonunida belgilangan qonunga zid qilmishi jinoyat deb topilib, bu ijtimoiy xavfli hisoblanadi va bunday shaxslarning tajovuzidan zaruriy mudofaa huquqidan foydalanib himoyalaniş mumkin.

Bu masalaga olim M.H. Rustamboyev quyidagicha fikr bildiradi: "Qilmishning huquqqa qarshi bo'lishining alomati faqat tajovuzning obyektiv tomoniga tegishli bo'ladi, ya'ni JK tegishli moddasining dispozitsiyasida ta'riflangan qilmishning o'zi huquqqa qarshi deb tan olinadi. Jinoyat subyektiining tavsi fi esa JKning 37-moddasi jihatidan u yoki bu qilmishning huquqqa qarshi deb tan olinishiga ta'sir etmaydi" [4].

Hujumda jinoyat alomatlari aks etgan bo'lsagina tajovuz qiluvchiga zarar yetkazish mumkin. Bu talab Jinoyat kodeksi 37-moddasidagi zaruriy mudofaaga berilgan ta'rif va jinoyatning umumiy tushunchasidan (JK 14-m.) kelib chiqadi. Chunki qonunga xiloflik, ya'ni jinoyat qonuni bilan taqiqlanganlik uning asosiy belgisi hisoblanadi. Tajovuz nafaqat qonunga xilof, balki ijtimoiy xavfli bo'lishi ham kerak, chunki qilmishning kam ahamiyatliligi uning ijtimoiy xavfliligi va jazoga loyqligini istisno qiladi [5].

Zaruriy mudofaadan foydalanishning sharti sifatida qilmishning ijtimoiy xavfli bo'lishining talab qilinishiga sabab faqat ijtimoiy xavfli qilmishgina jinoyat hisoblanadi. Ijtimoiy xavfli bo'lmagan qilmishlar, misol uchun, ota-onaning farzandini tarbiyalash uchun bir yoki ikki tarsaki urishi, birovning bog'idan ozroq olma olish, birovning ekinlarini kesib o'tish jinoyat hisoblanmaydi va bunday holda zaruriy mudofaadan foydalanish mumkin ham emas.

Zaruriy mudofaadan foydalanishning ikkinchi sharti tajovuzning mavjudligi, ijtimoiy xavfli tajovuzga muvofiq keluvchi zaruriy mudofaa haqiqiyligining muhim sharti – tajovuzning mavjudligi, ya'ni uning boshlang'ich va yakuniy holatini aniqlashdan iboratdir [1].

Ijtimoiy xavfli tajovuzning boshlanish yoki tugallanish vaqti, ushbu tajovuzga nisbatan zaruriy mudofaa huquqining bor yoki yo'qligi, shuningdek, mazkur holatda zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish holatlari bor yoki yo'qligini aniqlashda ham tajovuzning boshlanish va tugallanish holatlarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Tajovuzning boshlanish vaqti mudofaalanuvchiga aniq namoyon bo'lib turishi kerak. Tajovuzning boshlang'ich vaqti tajovuzning amalga oshirilishi ko'zlanayotganda yoki hali amalga oshirilmaganda namoyon bo'ladi [1]. Tajovuzning boshlanish vaqti tajovuz boshlanmagan vaqt hisoblanadi, ya'ni tajovuz boshlanmasdan turib tajovuzchining xatti-harakatlaridan, misol uchun, so'zlar, imo-ishoralar, qurolni ko'rsatish yoki boshqacha qo'rqitish harakatlari bilan namoyon bo'lib turadi. Ana shu holatlar tajovuzning boshlanish vaqti hisoblanadi va shunday holatda zaruriy mudofaa huquqidan foydalanish mumkin.

Bunday fikrga kelishimizga sabab, birinchidan, Oliy Sud Plenumining 1996-yil 20-dekabrdagi 39-sonli qarorida bu masalaga doir quyidagicha tushuncha berilgan: "Zaruriy mudofaa holati faqatgina ijtimoiy xavfli tajovuz yuz bergan paytning o'zidagina emas, balki tajovuzning boshlanish xavfi mavjud bo'lgan hollarda ham vujudga keladi. Zaruriy mudofaa holati tajovuz tugagandan so'ng ham bo'lishi mumkin, agar himoyalalanuvchi ish holatlariga ko'ra tajovuz tugagan vaqtni aniq anglay olmagan bo'lsa. Hujum vaqtida ishlatilgan qurol va boshqa ashyolarning tajovuzchidan himoyalalanuvchining qo'liga o'tib qolishining o'zi tajovuz tugaganligidan dalolat bermaydi".

Masalan, quyidagi voqea shu masalaga doir. Sh.ning dala hovlisiga mast holatdagi V. va K.lar kirmoqchi bo'lgan. Sh. ularni iti bilan qo'rqitgan. Bezorilar dala hovli egasi Sh.ni bo'g'ib tashlash, itini esa o'ldirish bilan tahdid qilishgan.

Ular spirtli ichimlik bilan mehmon qilishni talab etgan. To'polon qilayotgan bezorilarning tahdididan qo'rqib, Sh. ov miltig'ini olib, dahlizga chiqqan (uyda uning xotini, kichik yoshdagi bolasi va 80 yoshdagi onasi bo'lgan) va bezorilarni qo'rqitish maqsadida ularning boshidan teparoqqa qarab o'q uzgan. Biroq o'q parchalari V.ning boshiga teggan va unga o'rtacha og'irlikdagi tan jarohati yetgan. Jinoiy javobgarlikka tortilgan Sh. dastlabki tergovda ham, sud majlisida ham o'zining talablari natijasiz bo'lganligi sababli miltiqdan o'q o'zishga majbur bo'lganini tushuntirgan. Ko'rsatilgan holatlarni aniqlab, sud Sh.ni zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishda aybli deb topdi va unga bir yilga ozodlikdan mahrum etish to'g'risida hukm chiqardi [6].

Yuqoridagilarni o'rganib, tajovuzning boshlanish vaqti tajovuz boshlanmagan vaqt hisoblanadi, ya'ni tajovuz boshlanmasdan turib, tajovuzchining xatti-harakatlaridan, misol uchun, ular so'zlar, imo-ishoralar, qurolni ko'rsatish bilan yoki boshqacha qo'rqitish harakatlari tajovuzning boshlanish vaqti hisoblanadi va shunday holatda zaruriy mudofaa huquqidan foydalanish mumkin, degan fikrga keldik.

Biror jinoiy faoliyatni amalga oshirish maqsadida unga tayyorgarlik ko'rish yoki uni rejalashtirish jarayonida zaruriy mudofaani qo'llash mumkin bo'lmaydi. Agar tajovuz faqat tayyorlanayotgan yoki amalga oshirish rejasi tuzilayotgan bo'lsa, uning mavjudligi istisno qilinadi. Bunday hollarda ilgari zarur yetkazish umumiy asoslarda jinoiy javobgarlikka olib keladi. Imkoniyatdagi (ehtimol tutilgan) deb ataladigan tajovuzlar ham, agar himoya nazarda tutilgan va kelgusida sodir etilishi mumkin bo'lgan hujumni hisobga olib amalga oshirilgan bo'lsa ham zaruriy mudofaa hisoblanmaydi. Masalan, kartoshka ekilgan dalani o'g'rilardan himoya qilish uchun minalashtirish, bog'dagi olmalarni o'g'irlanishdan saqlash maqsadida elektr toki ulab qo'yish va boshqalar, agar insonga shi-

kast yetkazsa, jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi [3].

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish vaqtida zaruriy mudofaadan foydalanish yoki foydalanmaslik borasidagi masalaga V.F. Kirichenko quyidagicha fikr bildiradi: "Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish holatlarida... tajovuz yo'q chunki ular huquq muhofazasidagi manfaatlarni buzish uchun bevosita xavf tug'dirmaydi" [7].

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki uni rejalashtirish tajovuzning boshlanish vaqti hisoblanmaydi. Aslida, bu holatlar jinoyat hisoblansa-da, bunday holatlarga nisbatan zaruriy mudofaadan foydalanish mumkin emas va bunday holatlarda zaruriy mudofaadan foydalanish zaruriy mudofaa hisoblanmay umumiy asoslarda javobgarlikka tortiladi.

Tajovuzning boshlanish vaqti to'g'risidagi masala zaruriy mudofaani amalga oshirayotgan shaxsning subyektiv tasavvuri nuqtayi nazaridan, shuningdek, real, qaytarib bo'lmaydigan xavf to'g'risidagi subyektiv tasavvurlar asosida vujudga kelgan obyektiv holatlardan kelib chiqib hal etilishi mumkin.

Zaruriy mudofaani amalga oshiruvchi shaxsning huquqqa qarshi tajovuzning va uni amalga oshirishning haqiqiy xavfi mavjudligi to'g'risidagi subyektiv tasavvuri amaliy vaziyatga, tajovuz qiluvchining haqiqiy harakatlari asoslangan bo'lishi lozim [4].

Mudofaalanuvchining tajovuz boshlanmasdan turib tajovuzchining xatti-harakatlaridan uning tajovuz qilmoqchi ekani va bunday tajovuzni o'sha vaqtda agar boshlansa qaytarib bo'lmazligini anglab yetishi, uning bu boradagi tasavvuri tajovuzning faktik holatlari bilan muvofiq kelishi kerak.

Zaruriy mudofaani amalga oshirayotgan shaxs bevosita ijtimoiy xavfli tajovuzning bevosita ro'y berishini kutib o'tirmasligi lozim. U tajovuz darhol amalga oshirilishi kutilayotganligi to'g'risidagi faktik holatlarga

asoslangan huquq muhofazasidagi manfaat-
larga bevosita, tezda bo'lish xavfi to'g'risidagi
tasavvuridan kelib chiqib, himoyani qo'llash
huquqiga ega [8, 9].

Tajovuzning tugallanish vaqti ham zaruriy mudofaadan foydalanish shartlari masalasini hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Tajovuz turli holatlar natijasida tugallanishi mumkin: a) ixtiyoriy yoki majburiy tugallash; b) mudofaalanuvchi tomonidan uning qaytarilishi; d) tajovuz qiluvchining o'z maqsadiga yetishi; e) boshqa tabiiy holatlar natijasida.

Tajovuzchining tajovuzi turli holatlar natijasida tugagan yoki tajovuzchining qurolli mudofaalanuvchiga o'tib qolgan bo'lsa-da, tajovuz tugagan hisoblanmaydi. Bunda tajovuzni tugamagan deb hisoblash tajovuz jarayoni turli holatlar natijasida tugagan bo'lsa-da, tajovuzchi tajovuzdan voz kechmasdan turib, yana jabrlanuvchiga tajovuz qilishi mumkinligi va tajovuzchi qurolining mudofaalanuvchi qo'lga o'tib qolgani bilan tajovuzchining boshqa quroli bo'lishi mumkinligi va boshqa joydan qurol topib olishi mumkinligi ehtimolidan kelib chiqadi.

Mudofaalanuvchiga tajovuz tugagani aniq namoyon bo'lsa, misol uchun, tajovuzchi tajovuzdan ixtiyoriy voz kechishi yoki boshqa odamlarning yordamida tajovuz butunlay bartaraf etilgan bo'lsa, mudofaalanuvchi tajovuzchining boshqa tajovuz qilish maqsadi yo'qligini anglagan bo'lsa, lekin baribir mudofaalanuvchi tajovuzchiga zarar yetkazsa, mudofaalanuvchining harakati zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish hisoblanadi.

Tajovuzchiga mudofaalanuvchi tajovuz amalda tugaganidan keyin yetkazilgan va himoya qilish vositalarini qo'llashning zarurati ochiqdan ochiq qolmagan holda yetkazilgan bo'lsa, mudofaalanuvchi umumiy asoslarda jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim [4].

Zaruriy mudofaadan foydalanishning uchunchi sharti tajovuzning haqiqiyligidir. Zaruriy mudofaadan foydalanish uchun tajo-

vuz haqiqiy, real xavf solib turgan va qonun bilan qo'riqlanayotgan munosabatlarga zarar yetkazayotgan bo'lishi kerak. Zaruriy mudofaadan foydalanishning bunday sharti mudofaalanuvchilarning xayoliy mudofaaga asoslanib, zaruriy mudofaadan foydalanmasliklarining oldini olish, boshqacha aytganda, haqiqiy mudofaa bilan xayoliy mudofaani farqlashdir.

Xayoliy mudofaa holati faqat ish holatlari tajovuzning xayoliyligidan dalolat berganda mumkin bo'ladi. Tajovuzning xayoliyligi deganda, huquqqa qarshi harakatning sodir etilishi ehtimolidan u yoki bu darajada dalolat beruvchi ba'zi holatlar mavjudligi tushunilishi lozim [4].

Xayoliy mudofaada mudofaalanuvchi tajovuz yo'q bo'lsa-da, shaxsning xatti-harakati yoki boshqa holatlardan tajovuz bo'lyapti yoki tajovuz bo'ladi, deb o'ylaydi hamda u shaxsga zarar yetkazadi.

Turli adabiyotlarda xayoliy mudofaa holatiga turlicha qarashlar bor. Xususan, A.A. Piontkovskining fikricha, "Tajovuz haqiqiy bo'lishi kerak. Zaruriy mudofaa holatidagi harakatlar sodir etilgan ijtimoiy xavfni, agar tajovuz faqat subyekt tasavvurida emas, balki real, haqiqatan mavjud bo'lganda, bartaraf etish mumkin. Harakatning tasavvurdagi tajovuzning oldini olishi yoki boshqacha aytganda, xayoliy mudofaa holatida amalga oshirilishi, uni sodir etgan shaxsning qilmishidagi ayb shaklini aniqlashda faktik xatolarning mohiyati to'g'risidagi umumiy qoidalarga rioya qilinishi lozim" [10].

V.F. Kirichenko hujumning haqiqiyliги belgisini umuman foydasiz deb biladi va rad etadi. Uning fikricha, hujum va faqat hujum bo'lishi kerak [7]. I.I. Sluskiy ham xuddi shu nuqtayi nazar tarafdoridir [11].

Agar shaxs tajovuz yo'qligini bilmay turib va bilishi mumkin bo'lmagan holda tajovuz bor deb o'ylab, shaxsga zaruriy mudofaa holatida zarar yetkazadigan bo'lsa, uning qilmishi jinoyat hisoblanmaydi va

uning qilmishiga zaruriy mudofaa qoidalarini tatbiq etiladi. Bu borada Oliy Sud Plenumi quyidagicha tushuntirish beradi: “Agar hodisa holatlariga ko‘ra, mudofaa choralarini qo‘llagan shaxs o‘zining yanglishganini bilmagan va bilishi ham mumkin bo‘lmagan bo‘lsa, uning harakatlari zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb hisoblanishi kerak.

Agar shaxs tajovuzning aslida yo‘q va xayoliyligini bila turib, ish holatlariga ko‘ra ham uni albatta bilishi mumkin bo‘lgani holda zarar yetkazsa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining ehtiyotsizlik orqasida zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bilan tavsiflanishi lozim”.

Xulosalar

Xulosa qiladigan bo‘lsak, zaruriy mudofaa, agar undan to‘g‘ri foydalanilsa, jinoyatchilikning oldini olish, fuqarolar tomonidan shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishda davlat organlariga ko‘maklashuvini oshiruvchi va jinoyatchilikning kamayishiga katta yordam beruvchi huquq hisoblanadi.

Lekin ko‘p hollarda fuqarolarning qonunlarni tushunmasligi yoki qonunni buzib qo‘yib, javobgarlikka tortilishdan qo‘rqib, o‘zlarining bunday huquqlaridan foydalanmay ijtimoiy munosabatlar buzilishiga yo‘l qo‘yib berayotganliklari ham ko‘p uchraydi. Shuning uchun fuqarolarga zaruriy mudofaa huquqlari bor ekanligi, undan to‘g‘ri va o‘z vaqtida foydalanishlari hamda jinoyatchilikning oldini olishda ularning bunday huquqdan foydalanishlari maqsadga muvofiq ekanligi tushuntirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Bu vazifa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan targ‘ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish orqali bajarilishi zarur va buning natijasi shundagina samaraliroq bo‘ladi.

Mudofaalanuvchi tajovuzdan himoalanish uchun tajovuzchiga mos qurol yoki usuldan foydalanishi shart emas. Tajovuzga umuman mos kelmaydigan usul va vositadan foydalansa ham tajovuzchiga ortiqcha zarar yetkazmasdan tajovuzning oldini olsa bo‘ldi.

Oxirgi zarurat va zaruriy mudofaadan foydalanish barcha oddiy fuqarolar uchun majburiy emas, ammo bu davlat organi xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

Zaruriy mudofaada kuchli ruhiy hayajonlanish holatida mudofaalanuvchi tomonidan tajovuzchiga u yetkazishi mumkin bo‘lgan zarardan ortiqroq zarar yetkazilishi jinoyat hisoblanmaydi. Bu zarar zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan hisoblanadi.

Jinoyat Kodeksining 37-moddasi ikkinchi qismida *“Tajovuzning xususiyati va xavflilik darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topiladi”* deb belgilangan. Bizning fikrimizcha, shuning o‘zi zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish holatini to‘liq ochib bermaydi. Bu qismga tajovuz boshlanmasdan oldin zaruriy mudofaadan foydalanish va tajovuz tugagandan so‘ng mudofaadan foydalanish ham zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb belgilanib, shu holatlar qo‘shimcha qilinishi kerak. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish tajovuz boshlanmasdan turib tajovuzchiga zarar yetkazish va tajovuz tugagandan so‘ng tajovuzchiga zarar yetkazish ham tushunilishi kerak. Lekin bu holat faqat jinoyat huquqi nazariyasida yoritilgan. Jinoyat kodeksida bu holat keltirilmagan. Jinoyat kodeksida faqat *“Tajovuzning xususiyati va xavflilik darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topiladi”* deb belgilangan. Agar shunga o‘xshash holatlar yuzaga kelsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bu masalani doim ham to‘g‘ri hal qilavermaydi va ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yadi. Shu sababli *“tajovuz boshlanmasdan tajovuzchiga zarar yetkazish va tajovuz tugagandan keyin tajovuzchiga zarar yetkazish ham zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish”* deb topilishi Jinoyat Kodeksi 37-moddasiga qo‘shimcha qism sifatida kiritilishi kerak.

REFERENCES

1. Qurbanov R.E. Zaruriy mudofaa muammolari [Essential Defense Issues]. PhD thesis. Tashkent, 1999, p. 157.
2. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General part. Tashkent, Nasaf Publ., 2010, p. 662.
3. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General part. Tashkent, Adolat, 1998, p. 110.
4. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. General part. The doctrine of crime. Tashkent, TSIL Publ., 2010, vol. 1, 509 p.
5. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. General part. Tashkent, Yuridik adabiyotlar Publ., 2021, 347 p.
6. From the archives of the court of Kashkadarya region. Criminal case no. 126/012.
7. Kirichenko V.F. Osnovnyye voprosy ucheniya o neobkhodimoy oborone v sovetskom ugovnom prave [Basic questions about non-military defense and Soviet legal rights]. Moscow, Gosyurizdat, 1951, p. 32.
8. Niyozova S.S. Legal conditions for the lawfulness of necessary defense. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, pp. 21–29. ISSN – 2693-0803.
9. Niyozova S.S. Strong emotional arousal (effect) as a criminal law norm. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, March 31, pp. 96–102. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume 03 Issue 03-15. –p. 96-102/. ISSN – 2693-0803
10. Piontkovski A.N. Ucheniya o prestuplenii po sovetskomu ugovnomu pravu [Teachings about crime in Soviet criminal law]. Moscow, Gosyurizdat, 1961, p. 434.
11. Slutskiy I.I. Obstoyatel'stva, isklyuchayushchiye ugovnuyu otvetstvennost [Circumstances excluding criminal liability]. Leningrad, LGU, 1956, p. 59.
12. Necessity Defense in Criminal Cases. Justia Legal Resources. Available at: <https://www.justia.com/criminal/defenses/necessity/>.
13. Ohlin J.D., May L. Necessity in Criminal Law. *Necessity in International Law*, New York, 2016, Oxford Academic. DOI: 10.1093/acprof:oso/9780190622930.003.0007/.
14. Fehr C. Self-Defence and the Constitution. *Queen's Law Journal*, 2017, vol. 43-1, p. 85. Available at: <https://canlii.ca/t/sx2s/>.
15. Miner R.J. Consequences of Federalizing Criminal Law. *Criminal Justice*, 1989, Spring, vol. 4, iss. 1, pp. 16–19, 39–41. NCJ no. 116913.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

MAXSUS SON

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 30.12.2022-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,11 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 179.

TDYU tipografiyasida chop etildi.